

“ANOR BUSINESS” va “ANORBANK” mobil ilovalarining maxfiylik siyosati

1. Kirish

“ANOR BANK” AJ mobil ilovasining maxfiylik siyosati (keyingi o‘rinlarda “ANORBANK”) foydalanuvchi tomonidan “ANOR BANK” mobil ilovasidan foydalanish jarayonida ANORBANK qurilmalardan olishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarga nisbatan amal qiladi. ANORBANK foydalanuvchi ma’lumotlarining xavfsizligi va maxfiyligini ta’minlash uchun sa’y-harakatlarni amalga oshiradi.

Ushbu maxfiylik siyosatida ANORBANK foydalanuvchi tomonidan “ANOR BUSINESS” va “ANORBANK” mobil ilovasidan (keyingi o‘rinlarda “Ilova”) foydalanish jarayonida taqdim etiladigan ma’lumotlarni qanday yig‘ishi, ishlatishi, oshkor qilishi va himoya qilishi bayon etiladi. Iltimos, ushbu siyosat bilan diqqat bilan tanishib chiqing.

Ilovadan foydalanish foydalanuvchining ushbu siyosatga hamda unda ko‘rsatilgan ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash shartlariga roziligini bildiradi. Agar foydalanuvchi ushbu shartlarga rozi bo‘lmasa, Ilovadan foydalanishdan voz kechishi lozim.

Ilova va uning doirasidagi xizmatlar foydalanuvchiga “ANOR BANK” AJ jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha universal shartnomasi asosida taqdim etiladi.

2. Yig‘iladigan ma’lumotlar

2.1. Shaxsiy ma’lumotlar:

ANORBANK quyidagi shaxsiy ma’lumotlarni to‘plashi mumkin:

- Foydalanuvchi tomonidan hisob qaydnomasini yaratish hamda ilovadan foydalanish jarayonida mustaqil ravishda taqdim etiladigan shaxsiy ma’lumotlar;
- Foydalanuvchining familiyasi, ismi, otasining ismi;
- Tug‘ilgan sana;
- Jinsi;
- JSHSHIR (PINFL);
- Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma’lumotlari;
- Pasport seriyasi va raqami;
- Foydalanuvchining foto va video tasvirlari;
- ID-karta raqami;
- STIR (INN);
- Ro‘yxatdan o‘tgan manzil;
- Doimiy va/yoki vaqtinchalik yashash manzili;
- Tug‘ilgan joyi;
- Telefon raqami;

- Elektron pochta manzili;
- Yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor nomi;
- Yuridik va pochta manzillari;
- Yuridik shaxs STIR yoki yakka tartibdagi tadbirkor JSHSHIR.

2.2. Moliyaviy ma'lumotlar:

Ilova orqali moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish uchun ANORBANK quyidagi ma'lumotlarni to'plashi mumkin:

- Bank hisob(lar)i to'g'risidagi ma'lumotlar;
- Bank kartalari ma'lumotlari;
- Tranzaksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- Kredit tarixi va boshqa moliyaviy ma'lumotlar;
- Omonat (depozit)lar bo'yicha ma'lumotlar;
- Ilova ichidagi xaridlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- Xarid amalga oshirilgan joy haqidagi ma'lumotlar;
- Ilova orqali amalga oshirilgan xaridlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- Ilovaga qo'shilgan boshqa bank kartalarining balans va tranzaksiyalari bo'yicha ma'lumotlar.

2.3. Qurilma to'g'risidagi ma'lumotlar:

ANORBANK ilova o'rnatilgan qurilma bo'yicha sessiya ma'lumotlari hamda qurilma haqidagi texnik ma'lumotlarni avtomatik ravishda to'plashi mumkin:

- Qurilma modeli;
- Qurilma markasi;
- Operatsion tizim;
- Ilova versiyasi;
- IP-manzil;
- Qurilmaning identifikatori;
- Ilovaga kirish vaqti to'g'risidagi ma'lumotlar;
- Tarmoq ulanishi nomi va parametrlari;
- Foydalanuvchi qurilmasidagi qo'ng'iroqlar tarixi (agar foydalanuvchi ruxsat bergan bo'lsa);
- Qurilmaga o'rnatilgan ilovalar to'g'risidagi ma'lumotlar (metama'lumotlar): ilova nomi, identifikatori va versiyasi.

2.4. Joylashuv to'g'risidagi ma'lumotlar:

ANORBANK GPS, Wi-Fi ulanish nuqtalari, Bluetooth, mobil tarmoqlar va boshqa texnologiyalar yordamida foydalanuvchi qurilmasining joylashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashi mumkin. Ushbu ma'lumotlar foydalanuvchiga joriy joylashuvga bog'liq kontent va xizmatlarni taqdim etish, shuningdek bank operatsiyalari doirasida xavfsizlikni ta'minlash va joylashuvni nazorat qilish maqsadida (agar foydalanuvchi ruxsat bergan bo'lsa) ishlatiladi.

2.5. Xizmatlarni sifatli va xavfsiz ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar:

ANORBANK tomonidan ilova orqali xizmatlarni sifatli va xavfsiz ko'rsatishni ta'minlash maqsadida qo'shimcha dasturiy modullar (SDK) yordamida yig'iladigan ma'lumotlar.

3. Yig'ilgan ma'lumotlardan foydalanish

3.1. ANORBANK Foydalanuvchi to'g'risida yig'ilgan ma'lumotlardan quyidagi maqsadlarda foydalanadi:

- Foydalanuvchi va qurilmani identifikatsiya qilish;
- mobil ilova orqali bank xizmatlarini, jumladan pul o'tkazmalari, to'lovlar va hisoblarni boshqarish xizmatlarini taqdim etish;
- Ilova hamda ANORBANK xizmatlari va servislaridan foydalanish xavfsizligini ta'minlash;
- moliyaviy operatsiyalar va hisob qaydnomasi xavfsizligini ta'minlash;
- ANORBANK xizmatlari va servislariga oid shaxsiylashtirilgan takliflar, so'rovlar, bildirishnomalar va ma'lumotlarni taqdim etish;
- Ilova va xizmatlar sifatini yaxshilash;
- yangi xizmatlar va mahsulotlarni tadqiq etish hamda ishlab chiqish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuridik talablar va majburiyatlarni bajarish.

3.2. Ushbu Siyosatning 3.1-bandida ko'rsatilgan maqsadlarda ANORBANK ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoniga maxfiylik to'g'risida tegishli shartnomalar tuzilgan hamkorlarni (Partnerlarni) jalb qilishga haqli. Ilovadan foydalanish bo'yicha anonimlashtirilgan (shaxsni aniqlab bo'lmaydigan) ma'lumotlarni Ilova ish faoliyatini yaxshilash maqsadida Partnerlarga berish ular bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

3.3. Ma'lumotlar ANORBANK va uning hamkorlarining axborot resurslarida Foydalanuvchi bilan tuzilgan shartnomaviy munosabatlar amal qilgan davr mobaynida, shuningdek bunday munosabatlar tugatilgandan so'ng 5 (besh) yil davomida yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan hollarda undan uzoqroq muddat davomida saqlanishi mumkin.

4. Uchinchi shaxslarga ma'lumotlarni oshkor qilish

4.1. ANORBANK Foydalanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga faqat quyidagi hollarda oshkor qilishi mumkin:

- Foydalanuvchining aniq (yozma yoki elektron) roziligi mavjud bo'lganda;
- Ilova orqali Foydalanuvchiga bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish doirasida zarur bo'lgan hollarda;
- O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

5. Ma'lumotlar xavfsizligi

5.1. ANORBANK foydalanuvchi ma'lumotlarini ruxsatsiz kirish, foydalanish va oshkor etilishidan himoya qilish uchun asosli choralarni ko'radi. Biz foydalanuvchilarning moliyaviy va shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlash maqsadida zamonaviy shifrlash usullari hamda boshqa texnologiyalardan foydalanamiz.

5.2. ANORBANK quyidagi hollarda Foydalanuvchi ma'lumotlarining uchinchi shaxslar tomonidan oshkor etilishi uchun javobgar hisoblanmaydi:

- ma'lumotlarning Foydalanuvchining o'zi tomonidan oshkor etilishi;
- foydalanuvchi qurilmasiga ruxsatsiz kirish, zararli dasturlar (viruslar) bilan zararlanish yoki qurilma nosozligi oqibatida yuzaga kelgan buzilishlar;
- ANORBANK nazoratidan tashqaridagi holatlar, jumladan internet, aloqa tarmoqlari va boshqa tashqi tizimlardagi uzilishlar yoki nosozliklar natijasida yuzaga kelgan ruxsatsiz oshkor etilish holatlari.

5.3. Masofaviy kirish dasturlaridan foydalanish.

Foydalanuvchi qurilmasida masofaviy kirish imkonini beruvchi dasturlar (jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda AnyDesk, TeamViewer va boshqa shunga o'xshash dasturlar) aniqlangan taqdirda yoki ularning ishlatilishi belgilari mavjud bo'lsa, ANORBANK xavfsizlikni ta'minlash va firibgarlikning oldini olish maqsadida Foydalanuvchining Ilovaga kirishini cheklashi yoki bloklashi mumkin.

ANORBANK masofaviy kirish dasturlaridan foydalanishni yuqori xavf omili sifatida baholaydi, chunki bu ruxsatsiz operatsiyalar amalga oshirilishi xavfini oshiradi.

Ilovaga kirishni tiklash uchun Foydalanuvchi ushbu dasturlardan foydalanishni to'xtatishi hamda Bank tomonidan belgilangan qo'shimcha xavfsizlik tekshiruvlaridan o'tishi shart.

Foydalanuvchi o'z qurilmasiga uchinchi shaxslar tomonidan masofaviy kirish dasturlari orqali ulanishga ruxsat bergan holatlarda yuzaga kelgan zararlar uchun ANORBANK javobgar bo'lmaydi.

6. Huquqlar va nazorat

6.1. Foydalanuvchi o'zining shaxsiy ma'lumotlariga kirish, ularni yangilash, tuzatish yoki o'chirish huquqiga ega. Shuningdek, Foydalanuvchi ilova orqali maxfiylik sozlamalarini boshqarishi mumkin.

6.2. Kirishni cheklash va blokdan chiqarish tartibi.

Shubhali faollik, firibgarlik alomatlari aniqlangan taqdirda yoki antifrod nazorat tartib-taomillari doirasida ANORBANK Foydalanuvchining Ilovaga kirishini va/yoki ayrim operatsiyalarni vaqtincha cheklash yoki bloklash huquqiga ega.

Kirishni tiklash uchun Foydalanuvchi quyidagilarni bajarishi shart:

- ANORBANK ofisiga shaxsan tashrif buyurishi;
- shaxsni identifikatsiya qilish jarayonidan o'tish;
- mustaqil ravishda harakat qilayotganligini va uchinchi shaxslar, jumladan firibgarlar ta'siri ostida emasligini tasdiqlash;
- cheklovlarni olib tashlash bo'yicha yozma ariza taqdim etish.

Mazkur arizani imzolash orqali Foydalanuvchi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar haqida xabardor ekanligini tasdiqlaydi hamda blokdan chiqarilgandan so'ng Ilovadan foydalanish va amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

7. Maxfiylik siyosatiga o'zgartirishlar kiritish

7.1. ANORBANK ushbu maxfiylik siyosatiga o'zgartirishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Siyosatning yangilangan talqini Ilovada joylashtiriladi.

8. Kontaktlar

8.1. Agar Foydalanuvchida mazkur maxfiylik siyosati yuzasidan savollar yoki takliflar yuzaga kelsa, quyidagi rekvizitlar orqali murojaat qilishi mumkin:

“ANOR BANK” Aksiyadorlik jamiyati

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent shahri,

Yashnobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 85 uy.

Ma'lumot uchun telefon (Bank kontakt-markazi): (+998 55) 503-00-00

Ishonch telefoni: (+998 71) 231-27-70

Rasmiy veb-sayt: www.anorbank.uz

E-mail: info@anorbank.uz

Boshqaruv raisi

Sh. Akramov

Kiritildi:

Korporativ biznes departamenti direktori

o'rinbosari

I. Solimuhamedov

Karta biznesi departamenti direktori

A. Ashirmuhamedov

Kelishildi:

Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari

E. Nadjimitdinov

Boshqaruv raisi o'rinbosari

E. Kadirov

Boshqaruv raisi o'rinbosari

A. Saydullayev

Boshqaruv raisi o'rinbosari

M. Nurutdinova

Boshqaruv raisi o'rinbosari

S. Xan

Bosh buxgalter

U. Babayev

Yuridik boshqarma boshlig'i

T. Zanaxov

Boshqaruvchi director

A. Bakiyev

Ichki nazorat departamenti direktori

M. Pulatova

Ichki audit departamenti direktori

S. Usmanov

Axborot xavfsizligi boshqarmasi boshlig'i

A. Abdurahmanov

Umumiy xavfsizlik boshqarmasi boshlig'i

M. Norkin